

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

3-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (5) - 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammadovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi psixologik xizmat boshlig‘i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayeov Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro‘yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

| | |
|--|-------|
| <i>Mansurov Ulug'bek Umarovich</i> FARG'ONA VODIYSI SHAHARLARIDA TIBBIYOT TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR (1917-1990-YILLAR) | 12-20 |
| <i>Yuldashev Ulugbek Kadirjanovich</i> O'ZBEKISTONDA PROFESSIONAL TA'LIM BOSQICHIDA DUAL TA'LIM SHAKLINING JORIY QILINISHI TARIXI | 21-27 |
| <i>Bobobekova Nargiza Ismatullayeva</i> JIZZAX VILOYATI SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMI FAOLIYATI TARIXI (XIX ASR IKKINCHI YARMI - XX ASR BOSHLARI) | 28-33 |
| <i>Esanova Nilufar</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING YENGIL SANOAT SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR BILAN HAMKORLIGI | 34-37 |
| <i>Tursunov Bekzot Yandashevich</i> QO'QON XONLIGI QO'SHININING QUROL-ASLAHALARIGA OID | 38-45 |
| <i>Давлетмуратов Куралбай Хожамуратович</i> АНТИЧНЫЕ И СРЕДНЕВЕКОВЫЕ ЗООМОРФНЫЕ МЕТАЛЛИЧЕСКИЕ ИЗДЕЛИЯ ХОРЕЗМА | 46-52 |
| <i>Raximov Bektosh, Tashmuradov Umidbek</i> AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA TASHQI DIPLOMATIK ALOQALARNING DAVLAT SIYOSIY TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI | 53-57 |
| <i>Otaxanov Alisher Mamadaliyevich</i> TEMURIY MALIKALARNING ILM-FAN VA IJTIMOYIY TARAQQIYOTGA QO'SHGAN HISSALAR | 58-64 |
| <i>Xakimov Ravshan Raimovich</i> MIRZACHO'LNING ETNOEKOLOGIK MUAMMOLARI | 65-74 |
| <i>Ergashev Jahongir Yunus o'g'li</i> TURK XOQONLIGINING BOSHQARUVIDA IMPERIYACHILIK XUSUSIYATLARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI | 75-82 |

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

| | |
|--|---------|
| <i>Gabriel Ayodeji Ogunmola</i> ЦИФРОВОЙ ДИВИДЕНД: ИЗУЧЕНИЕ ПОТЕНЦИАЛА ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ | 83-96 |
| <i>Abdullayev Altinbek Yangibayevich</i> KORXONANING KOMPLEKS ISHLAB CHIQRARISH XARAJATLARI VA QO'SHIMCHA MAHSULOT ISHLAB CHIQRARISH HISOBINI YURITISHNING USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH | 97-113 |
| <i>Komolov Odiljon Sayfidinovich</i> KREDIT TASHKILOTLARINI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING TAHLILI | 114-123 |

| | |
|--|---------|
| <i>Shaislamova Nargiza Kabilovna</i> MAMLAKAT IQTISODIYOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING ROLI | 124-134 |
| <i>Qo'chqarov Baxtiyor Xoshimjanovich</i> KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING AYLANMA MABLAG'LARINI SHAKLLANTIRISH VA UN DAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI | 135-147 |
| <i>Abdimurodov Baxrom, Abdimurodov Bahodir</i> AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA XODIMLARGA HAQ TO'LANADIGAN HAR YILGI MEHNAT TA'TILINI RASMIYLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH | 148-152 |
| <i>Matkarimov Inomjon, Yuldashbayev Azizulloh</i> BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH | 153-158 |
| <i>Исламтудинова Дина Файзрахмановна</i> ТРАНСФОРМАЦИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ КОНЕВОДСТВА В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАНИ | 159-166 |
| <i>Ravshanov Zaxiriddin Ibragimovich</i> OVQATLANISH XIZMATLARI SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINI RIVOJLANTIRISH BORASIDA TAVSIYALAR | 167-176 |
| <i>Джуманиязов Уббинияз Исмайл улы</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ КИТАЯ | 177-183 |
| <i>To'lakov Ulug'bek Toshmamatovich</i> YERLARNI VAHOLASH VA SOLIQQA TORTISHNING METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH | 184-193 |
| 09.00.00 – FALSAFA FANLARI | |
| <i>Xolmirzaev Xurshid Nakibillaevich,</i> IJTIMOIY-KASBIY FAOLIYAT JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKTNING INSON SALOHİYATIGA TA'SIRI | 194-200 |
| <i>Tashanov Abduxoliq</i> QADIMGI SHARQ MANBALARIDA INSON BUZG'UNCHILIGI HAQIDAGI QARASHLAR ... | 201-206 |
| <i>Muhamedov Asror Asadovich</i> UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI YARATISHDA YUSUF XOS HOJIB FALSAFIY MEROSIDAN FOYDALANISH | 207-213 |
| <i>Жумаева Шахло Суюновна</i> ВОПРОС ПРАВСТВЕННОГО СОВЕРШЕНСТВА В УЧЕНИИ АХМАДА ЯССАВИ | 214-219 |
| <i>Eshonqulov Laziz Norqobul o'g'li</i> HAJVIYLIKNING PSIXOLOGIK IJTIMOIIY-MADANIY VA ESTETIK XUSUSIYATI | 220-224 |
| <i>G'ulomov Zuxriddin Baxromjon o'g'li</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA YOLG'ON AXABOROTLARNING MAZMUN-MOHİYATI VA KONSEPTUAL ASOSLARI | 225-231 |
| <i>Xaitov Lazizbek Azamatovich</i> HAKIM TERMIZIYNING FALSAFIY TA'LIMOTI | 232-236 |

| | |
|---|---------|
| <i>Ortiqov Shahriddin</i> SHAXS ESTETIK ONGI VA MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA TEATR SAN'ATINING O'RNI | 237-241 |
| <i>Toshiboieva Munavar</i> IJTIMOIY-MA'NAVIY MUHIT BARQARORLIGIDA XOTIN-QIZLARNING ISHTIROKI | 242-248 |
| <i>Murotov Elyor Narzillo o'g'li</i> YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYALARINING UZVIYLIGI VA FALSAFIY TAHLILI | 249-255 |
| <i>Soipova Mavjuda Karimjanovna</i> FAZL IBN AHMAD TA'LIMOTIDA NUR VA HARAKAT MASALASI | 256-260 |
| <i>Ashurova Xurshida Sag'dullaevna</i> HOJI MUIN ZAMONDOSHI SHOKIR MUXTORINING HAYOTI VA FAOLIYATI HAQIDAGI QARASHLARI | 261-264 |
| <i>Karimov Anvarjon Lutfilloyevich</i> IBN SINO FALSAFIY MEROSIDA AXLOQI MASALASI | 265-269 |
| <i>Shakambarov Abdurashid Abdujabbarovich</i> MA'NAVIY MARGINALLASHUVDAN HIMOYALANISHDA XORIJ TAJRIBASI | 270-275 |
| <i>Samadov Jonmurod</i> JALOLIDDIN RUMIY GNOSEOLOGIASINING ZAMONAVIY TAHLILI | 276-280 |
| <i>Barnoev Sanjar Qurbonovich</i> YUSUF HAMADONIYNING INSON VA KOINOT UYG'UNLIGIGA OID TA'LIMOTIDA ME'YOR MASALALARI | 281-286 |
| <i>Ярлакабов Джамшид Мамасултонович</i> СВОБОДА И НЕОБХОДИМОСТЬ КАК ВЕКТОРЫ РАЗВИТИЯ ГЛОБАЛЬНОГО ОБЩЕСТВА: РЕАЛИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ | 287-291 |
| 10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI | |
| <i>Isanova Feruza Tulqinovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING SINXRON TAHLILI | 292-297 |
| <i>Xayrullayeva Shahzoda Farhod qizi</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SALBIY VA IJOBIIY HIS TUYG'ULARNI LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI | 298-303 |
| <i>Tadjiyeva Mastura, Umarxonova Dilafruz</i> INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARIDA "BOYLIK" VA "FAQIRLIK" KONSEPTLARINING AKSIOLINGVISTIK TAHLILI | 304-308 |
| <i>Sharipova Nilufar Shaxrillo qizi</i> ZAMONAVIY DUNYO ADABIYOTIDA XALQ KULGISI ASOSIDA KELIB CHIQQAN YANGI BADIY SHAKLLAR | 309-312 |
| <i>Ochilova Gulnoza Farxod qizi</i> NUTQ BIRLIKLARI MASALASINING UMUMIY TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI | 313-316 |
| <i>Alqarov Nazarbek Alisher o'g'li</i> IT MOTIVINING DUNYO VA O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA O'RGANILISHI | 317-322 |

| | |
|--|---------|
| <i>Abdusalomov Firuz Abduxoliqovich</i> HARBIY DISKURSDA BUYRUQNING VOQELANISHI | 323-329 |
| <i>Ruzmatova Gulnara Kulmamatovna</i> STYLISTIC AND LINGUACULTUROLOGICAL FEATURES OF IMPLICATURES IN ENGLISH AND UZBEK ANECDOTES | 330-333 |
| <i>Safarova Farida, Toshkulova Madinabonu</i> THE STUDY OF TEXT LINGUISTIC | 334-337 |
| <i>Amonova Dilshoda Azamat qizi</i> ADABIYOTDA BADIY OBRAZ TUSHUNCHASI VA UNING XUSUSIYATLARI (DEN BRAUNNING "DA VINCHI SIRI" ROMANI MISOLIDA) | 338-343 |
| <i>Sultonova Gulchehra Xusanovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILI NAMUNASI SIFATIDA AFORIZMLARNING MADANIY VA FALSAFIY JIHATLARI | 344-348 |
| <i>Makhmudova Mutabar Dustmukhammad kizi,</i> CAUSES OF STREOTYPE OCCURRENCE | 349-353 |
| <i>Sadullaeva Matlyuba Akhrorovna,</i> NUMERIC MYSTERIES: THE ROLE OF NUMBERS AND SYMBOLISM IN "THE DA VINCI CODE" | 354-359 |
| <i>Khusenova Shosura Toshtemirovna,</i> DOCTORS' ATTITUDES TOWARD LEARNING ENGLISH: A NEEDS ANALYSIS REPORT | 360-363 |
| <i>Mamajanova G'uncha, Shakirova Saida</i> EKVIVALENTLIK VA TAFOVUT MEZONLARI ASOSIDA O'ZBEK VA INGLIZ METAFORALARINING QIYOSIY TAHLILI | 364-368 |
| <i>Saydullayeva Dilrabo Ilxom qizi</i> SODIQIY AFSHORNING "MAJMA UL-HAVAS" TAZKIRASI VA UNING O'ZBEK TAZKIRASHUNOSLIGIDAGI AHAMIYATI | 369-372 |
| 12.00.00 - YURIDIK FANLAR | |
| <i>Hурпеисов Еркеш, Ибраева Алуа, Сманова Акмарал</i> КОНСТИТУЦИОННОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ТРИАДЫ В ИСТОРИЧЕСКОМ ВЫБОРЕ КАЗАХСТАНА | 373-379 |
| <i>Камалов Мансурхон Мухтарович</i> К ВОПРОСУ О КОНФЛИКТЕ ИНТЕРЕСОВ В КОРПОРАТИВНЫХ ОТНОШЕНИЯХ | 380-385 |
| <i>Komilov Avazbek Bokijonovich</i> QONUN BUZILISHI, UNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA BUNGA IMKONIYAT YARATIB BERAYOTGAN SHART-SHAROITLARNI BARTARAF ETISH TO'G'RISIDAGI PROKUROR TAQDIMNOMASINING MAZMUNI VA UNGA QO'YILGAN TALABLAR | 386-394 |
| <i>Xolov Utkir Shomurodovich,</i> QONUNIY KUCHGA KIRGAN SUD HUJJATLARINI YANGI OCHILGAN HOLATLAR BO'YICHA QAYTA KO'RISHNING AYRIM MASALALARI | 395-399 |
| <i>Kuldoshev Ulug'bek Otabek o'g'li</i> KASB YUZASIDAN O'Z VAZIFALARINI LOZIM DARAJADA BAJARMASLIK VA XAVF OSTIDA QOLDIRISH JINOYATLARINING SUBYEKTI VA ULARNING FARQLI JIHATLARI | 400-407 |

| | |
|--|---------|
| <i>Ибрагимова Сабина Эркиновна</i> К ВОПРОСУ О ДАЛЬНЕЙШЕЙ ИМПЛЕМЕНТАЦИИ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ПРАВОСУДИЯ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ, В УГОЛОВНО- ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН | 408-413 |
| <i>Avezov Dilshod Sadulayevich</i> MAHALLIY KENGASH DEPUTATINI CHAQIRIB OLISH MASALALARI VA UNING XUSUSIYATLARI | 414-418 |
| <i>Haydarov Jaloliddin Hamza o'g'li</i> VALYUTA QIMMATLIKLARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA OLISH YOKI O'TKAZISH JINOYATINING PREDMETI TAHLILI | 419-423 |
| <i>Zairov Asadbek Sayfullo o'g'li</i> INKLYUZIV TA'LIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA QONUNCHILIK BAZASINING ROLI | 424-432 |
| <i>Karimov Bekmurodjon Anvarjonovich</i> BMT INSON HUQUQLARI BO'YICHA SHARTNOMAVIY ORGANLARI TIZIMINI KUCHAYTIRISH | 433-442 |
| 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI | |
| <i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> ZAMONAVIY OLIY TA'LIMDA KREATIVLIKNI TASHXISLASH METODIKALARINI QO'LLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI | 443-449 |
| <i>Raxmatov Otabek Urinbosarovich</i> "JISMONIY TARBIYA VA SPORT PEDAGOGIKASI" FANINING BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA VA SPORT FAOLIYATI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDAGI AHAMIYATI | 450-455 |
| <i>Xamroyev Samijon Salimovich</i> SPORT TO'GARAGI MAHG'ULOTLARIGA TALABALAR QIZIQISHLARINI SHAKLLANTIRISHDA UZLUKSIZLIKNI TA'MINLASH VOSITALARI | 456-461 |
| <i>Berdiyeva Nilufar Ibodullayevna</i> TALABALARDA INSHONING MAZMUNIIY- MANTIQUIY BAYON QILINISHIGA DOIR BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH | 462-467 |
| <i>Ortiqov Bekruh Baxodir o'g'li</i> ZAMONAVIY VOLEYBOLCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGI VA BIOMEKANIK XUSUSIYATLARI HAMDA SAMARADORLIKKA TA'SIRI | 468-472 |
| <i>Jumayeva Xulkarxon Muxammadjonovna</i> TALABALARNI INVARIANTIV VA VARIATIV TAHDIDLARDAN HIMOYALASHNING PEDAGOGIK STRATEGIYASI | 473-480 |
| <i>Avliyaqulov Tolib Xolmurodovich,</i> TALABALAR KASBIY-AXLOQIY TAYYORGARLIGIGA QADRIYATLARGA ASOSLANGAN YONDASHUV | 481-486 |
| <i>O'tashev Xasan Nematullayevich</i> OLIIY TA'LIM MUASSASASIDA SPORT ISHLARINING USTUVOR VAZIFASI SIFATIDA SPORT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM JIHLTLARI | 487-492 |
| <i>Axmadjanov Doniyor Baxtiyor o'g'li</i> BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHISINING AXLOQIY YETAKCHILIGI VA KASBIY FAZILATLARI | 493-500 |

| | |
|---|---------|
| <i>Mengliyev Bobur Normamatovich</i> O'QITUVCHILARNI PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI TAHLIL QILISH USULLARI | 501-507 |
| <i>Gafforov Alisher Xolmurodovich</i> PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI RAQAMLI TA'LIM RESURLARINI LOYIHALASH, TIZIMLASHTIRISH VA UNING MAZMUNI | 508-518 |
| <i>Qurbonova Bonu Quvondiq qizi</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI KITOBGA QIZIQTIRISH: SAMARALI USULLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR | 519-524 |
| <i>Zubaydullayev O'ktam Raim o'g'li</i> O'QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA SAN'ATNING O'RNI | 525-529 |
| <i>Raximov Nurillo Narzullaevish</i> BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHISINI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH: MUAMMO VA YECHIMLAR | 530-538 |
| <i>Ergashova Munisa Hoshim qizi</i> MUSTAQIL TA'LIMNI O'YINLAR ORQALI TASHKIL ETISH | 539-543 |
| <i>Nuriddinova Madina, Nuriddinov Muhriddin</i> USING WIKI-TECHNOLOGY TO IMPROVE STUDENTS' WRITING COMPETENCE | 544-552 |
| <i>Kalekeeva Sarbinaz Turkmenbaevna,</i> O'QUVCHILARNING MANTIQUIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN ZAMONAVIY YONDASHUVLAR | 553-560 |
| <i>Nasriddinova Hulkar Komiljonovna,</i> RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BOSHLANG'ICH SINFLAR MATEMATIKA TA'LIMIDA QO'LLANILISHI IMKONIYATLARI | 561-565 |
| <i>Evatov Saminjon Sobirovich</i> JAMOAVIY FAOLIYATNI TASHKEL ETISH ASOSIDA O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH | 566-572 |
| <i>Samatova Shohsanam Xolmuhammad qizi</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOGNITIV YONDASHUV ASOSIDA TIZIMLI FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI | 573-577 |
| <i>Idrisov Mironshoh Ilyos o'g'li</i> TALABALARNI JISMONIY TARBIYA, SPORT VA TURIZM VOSITALARI BILAN SOG'LOMLASHTIRISH TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI | 578-582 |
| <i>Nasriddinova Nilufar Shuxrat qizi</i> 1-SINF ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING INTENSIVLIGINI TA'MINLASH METODIKASI | 583-587 |
| <i>Yavkochdiyeva Dilafuz</i> TALABALARNI PEDAGOGIK KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA "STAATE" INNOVATSION TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH | 588-593 |

Received: 16 February 2025

Accepted: 5 March 2025

Published: 20 March 2025

Article / Original Paper

MORAL LEADERSHIP AND PROFESSIONAL QUALITIES OF A FUTURE HISTORY TEACHER

Akhmadjanov Doniyor

PhD in Pedagogical Sciences,

Associate Professor, Chirchik State Pedagogical University

Abstract. This article analyzes the process of forming the moral and ethical image of a future history teacher. The teacher's ability to be a moral leader, serve as a personal example, and foster historical thinking and patriotism plays a crucial role in the pedagogical process. The research results indicate that developing professional ethics and pedagogical morality, strengthening moral leadership and communication competencies, and integrating national and universal values in education are key factors in enhancing the teacher's moral and ethical image.

Keywords: history teacher, moral and ethical image, moral leadership, personal example, professional ethics, pedagogical morality, national values, universal values, education.

BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHISINING AXLOQIY YETAKCHILIGI VA KASBIY FAZILATLARI

Axmadjanov Doniyor Baxtiyor o'g'li

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak tarix o'qituvchisining ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish jarayoni tahlil qilinadi. O'qituvchining axloqiy yetakchilik qobiliyati, shaxsiy namuna bo'lishi va tarixiy tafakkur hamda vatanparvarlikni shakllantirishdagi roli pedagogik jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kasbiy etika va pedagogik axloqni shakllantirish, axloqiy yetakchilik va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish hamda ta'lim jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarini uyg'unlashtirish o'qituvchining ma'naviy qiyofasini mustahkamlashda muhim omillardir.

Kalit so'zlar: tarix o'qituvchisi, ma'naviy-axloqiy qiyofa, axloqiy yetakchilik, shaxsiy namuna, kasbiy etika, pedagogik axloq, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, ta'lim.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I3Y2025N75>

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimi o'qituvchilardan nafaqat bilim berishni, balki yosh avlodni tarbiyalash, ularga jamiyatning axloqiy va ma'naviy qadriyatlarini singdirish kabi muhim vazifalarni ham bajarishni talab qiladi. Xususan, tarix fani o'qituvchisi jamiyat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri bo'lib, o'qituvchilarda vatanparvarlik, tarixiy tafakkur, tanqidiy fikrlash va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishda yetakchi rol o'ynaydi [9]. O'qituvchining ma'naviy-axloqiy qiyofasi nafaqat uning shaxsiy fazilatlarini bilan, balki pedagogik mahorati, kasbiy etikasi va ijtimoiy faoliyati bilan ham bog'liqdir. Shu sababli, tarix o'qituvchisi o'z fanini mukammal bilishi bilan birga, axloqiy yetakchilik qobiliyatiga ega bo'lishi, madaniy merosga hurmat bilan yondashishi va yosh avlodni ijtimoiy muammolarga befarq bo'lmaslikka o'rgatishi lozim [4].

Bugungi globalashuv sharoitida ta'lim tizimi turli sinovlarga duch kelmoqda. Yosh avlod o'ziga yangi qadriyatlarni singdirayotgan bir paytda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish muhim vazifalardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, tarix o'qituvchisi milliy identifikatsiyani shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. U tarixiy jarayonlarni haqqoniy talqin qilishi, tarixiy shaxslar faoliyatini obyektiv yoritishi va o'quvchilarga xolis yondashishi kerak. Ushbu talablar tarix o'qituvchisining faqatgina ilmiy bilimlarini emas, balki uning axloqiy yetakchilik qobiliyatini ham shakllantirish zarurligini ko'rsatadi [3]. O'qituvchi nafaqat ma'lumot beruvchi, balki yosh avlodning ongiga ta'sir etuvchi, ularga ijtimoiy va axloqiy tamoyillarni singdiruvchi shaxs sifatida ham ko'rilishi lozim.

Zamonaviy pedagogik jarayonda o'qituvchining roli murakkab va ko'p qirrali tus olgan. U faqatgina bilim beruvchi emas, balki ijtimoiy mas'uliyatni his qiluvchi, yosh avlodning dunyoqarashini shakllantiruvchi, axloqiy qadriyatlarni singdiruvchi yetakchi hamdir [10]. Xususan, tarix o'qituvchisi jamiyat va madaniyat rivojlanishini chuqur tahlil qilgan holda, o'quvchilarni turli davrlardagi tarixiy saboqlardan xabardor qilish orqali ularning kelajakka bo'lgan qarashlarini shakllantirishi lozim. Shu nuqtai nazardan, tarix o'qituvchisining ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish bugungi kunda dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Hozirgi ta'lim tizimida o'qituvchilar oldida turli sinovlar mavjud: jamiyatda axloqiy qadriyatlarning o'zgarishi, axborot xurujlari, yoshlarning turli mafkuraviy oqimlarga moyilligi, ijtimoiy mas'uliyat tushunchasining o'zgarishi va o'quvchilarning o'zaro munosabatlarida yetishmovchiliklar kuzatilmoqda. Bunday sharoitda tarix o'qituvchisining nafaqat bilim berish, balki tarbiyaviy faoliyat bilan ham shug'ullanishi lozim. U o'zining shaxsiy fazilatlari, kasbiy etikasi va ijtimoiy faoliyati orqali o'quvchilarga ta'sir ko'rsatishi va ularda tarixiy tafakkurni rivojlantirishi kerak [2].

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – bo'lajak tarix o'qituvchisining ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish va bu borada ilmiy asoslangan tavsiyalar berishdan iborat. Tadqiqot quyidagi vazifalarni hal qilishga qaratilgan:

- **Tarix o'qituvchisining ma'naviy-axloqiy qiyofasi tushunchasini aniqlash:** o'qituvchining shaxsiy fazilatlari, axloqiy tamoyillari va kasbiy etikasini belgilovchi mezonlarni o'rganish.
- **Tarix o'qituvchisining ma'naviy qiyofasini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish:** pedagogik va psixologik jihatlar, jamiyat ta'siri, ta'lim tizimi va o'qituvchi shaxsiy xususiyatlari.
- **O'qituvchining axloqiy yetakchilik qobiliyatini rivojlantirish usullarini o'rganish:** kasbiy rivojlanish, pedagogik treninglar va mentorlik tizimining o'rni.
- **Shaxsiy namunaning ta'lim jarayonidagi ta'sirini aniqlash:** o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga axloqiy qadriyatlarni singdirish mexanizmlarini o'rganish.
- **Pedagogik etikaning tarix o'qituvchisi faoliyatidagi o'rni va ahamiyatini belgilash:** o'quvchi-o'qituvchi munosabatlari, muloqot madaniyati va kasbiy axloq tamoyillari.

Mazkur tadqiqot tarix o'qituvchisining nafaqat metodik jihatlarini, balki uning axloqiy yetakchilik qobiliyatlarini, shaxsiy fazilatlari va kommunikativ madaniyatini ham o'rganadi. Hozirgacha olib borilgan tadqiqotlarda ko'proq o'qituvchining didaktik qobiliyatlariga e'tibor qaratilgan bo'lsa, ushbu tadqiqot o'qituvchining tarbiyaviy roli va ma'naviy-axloqiy jihatlarini batafsil tahlil qiladi (Gardner, 2000). Shuningdek, tadqiqot tarix o'qituvchisi faoliyatini milliy

va xalqaro standartlar bilan taqqoslab, pedagogik jarayonda innovatsion yondashuvlarning ahamiyatini ochib beradi.

Ushbu tadqiqot natijalari tarix fani o'qituvchilari uchun kasbiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishda, pedagogik etika bo'yicha treninglar tashkil etishda, o'qituvchilarning axloqiy yetakchilik qobiliyatlarini shakllantirishda amaliy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ushbu tadqiqotda bo'lajak tarix o'qituvchisining ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish maqsadida empirik va nazariy tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida pedagogik va psixologik adabiyotlar tahlili, o'qituvchilarning axloqiy fazilatlarini va kasbiy kompetensiyalarini baholash metodlari, so'rov va intervyu natijalariga tayanish hamda xalqaro standartlar va milliy qadriyatlarini taqqoslash kabi usullar tanlandi.

Tadqiqotimizda o'qituvchining ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishga oid ilmiy manbalar o'rganildi. Bu jarayonda pedagogik kompetentlik, kasbiy etika va o'qituvchining shaxsiy fazilatlarini haqidagi nazariyalar tahlil qilindi. Masalan, G.T.Nurova o'z tadqiqotida o'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish muammolarini o'rgangan. O'qituvchilarning axloqiy fazilatlarini va kasbiy kompetensiyalarini baholash uchun mavjud metodlar tahlil qilindi. Bu borada o'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirishga qaratilgan ilmiy ishlar o'rganildi [1]. Shuningdek, ishimizda o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida so'rov va intervyu usullaridan foydalanildi. Bu usullar orqali o'qituvchilarning shaxsiy fazilatlarini, kasbiy etika va pedagogik mahoratlari haqidagi ma'lumotlar to'plandi [11]. Tadqiqotda xalqaro pedagogik standartlar va milliy qadriyatlar o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash maqsadida taqqoslash usulidan foydalanildi. Bu borada xalqaro tajribalar va milliy an'analar o'rganilib, ularning o'zaro aloqadorligi tahlil qilindi [6].

Ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish usullari quyidagicha tashkil etildi:

- Statistik tahlil va kvalifikatsion baholash: So'rov va intervyu natijalari statistik tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar asosida o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar aniqlanib, ularning ahamiyati baholandi.
- Pedagogik kuzatuv va taqqoslash usuli: Tadqiqot davomida pedagogik kuzatuv usulidan foydalanilib, o'qituvchilarning dars jarayonidagi xatti-harakatlari, muloqot uslubi va axloqiy fazilatlarini kuzatildi. Shuningdek, olingan natijalar xalqaro standartlar bilan taqqoslanib, milliy xususiyatlar aniqlab berildi.

Ushbu metodlar orqali bo'lajak tarix o'qituvchisining ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar chuqur tahlil qilindi va ilmiy asoslangan xulosalar chiqarildi.

Natijalar. O'qituvchining ma'naviy-axloqiy qiyofasi uning shaxsiy fazilatlarini, kasbiy etika va jamiyatdagi o'rnini belgilovchi muhim omillardir. Bu tushuncha o'qituvchining axloqiy qadriyatlarini, shaxsiy namunasi va kasbiy faoliyatidagi axloqiy tamoyillarini o'z ichiga oladi. O'qituvchining ma'naviy-axloqiy qiyofasi uning o'quvchilarga ta'sirchanligini oshiradi va ta'lim jarayonida muhim rol o'ynaydi [12]. Shuningdek, bu qiyofa o'qituvchining ichki madaniyati, ma'rifatga intilishi va jamiyat oldidagi mas'uliyatini ham aks ettiradi.

Shaxsiy namuna – O'qituvchining shaxsiy namuna bo'lishi uning ma'naviy-axloqiy qiyofasining asosiy ko'rinishlaridan biridir. U o'zining axloqiy-ruhoniyligi sifatlarini, didi va xulq-atvori orqali o'quvchilar uchun jonli namunadir. O'qituvchining faoliyati o'quvchilarda odob-

axloq qoidalari va ijtimoiy qadriyatlarga hurmatni shakllantiradi. Shaxsiy namuna orqali o'qituvchi o'quvchilarga axloqiy qadriyatlarni singdiradi va ularning ma'naviy rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Axloqiy yetakchilik – O'qituvchi axloqiy yetakchi sifatida o'quvchilarga tahliliy fikrlash, adolat, insonparvarlik va halollik kabi qadriyatlarni o'rgatadi. Uning shaxsiy xulqi o'quvchilar uchun namunadir. Axloqiy yetakchilik o'qituvchining o'quvchilarga tahliliy fikrlash, adolat, insonparvarlik va halollik kabi qadriyatlarni o'rgatish qobiliyatini ifodalaydi. Uning shaxsiy xulqi o'quvchilar uchun namunadir. Axloqiy yetakchilik orqali o'qituvchi o'quvchilarning axloqiy rivojlanishiga hissa qo'shadi va ularni jamiyatning faol a'zolari bo'lishga undaydi.

Tarixiy tafakkur va vatanparvarlik – Tarix o'qituvchisi o'quvchilarda tarixiy tafakkur va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. U milliy tarix, madaniy meros va qadriyatlarni o'quvchilarga yetkazib, ularda vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalaydi. Shuningdek, tarixiy voqealarni tahlil qilish orqali o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va ularni jamiyatning faol a'zolari bo'lishga undaydi.

Quyida esa bo'lajak tarix o'qituvchisining qiyofasini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillarni ishlab chiqishga harakat qildik:

Oila, jamiyat va ta'lim muassasalarining o'рни: Oila, jamiyat va ta'lim muassasalari o'qituvchining ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Oila insonning ilk tarbiya manbai bo'lib, uning axloqiy qadriyatlarini shakllantiradi. Jamiyat esa o'qituvchining axloqiy qiyofasini shakllantiruvchi asosiy manba hisoblanadi. Ta'lim muassasalari esa bu jarayonni davom ettiruvchi va mustahkamlovchi institut hisoblanadi. Ular o'qituvchining ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Pedagogik mahorat va kasbiy rivojlanish: O'qituvchining pedagogik mahorati va kasbiy rivojlanishi uning ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishda muhim omillardir. O'qituvchi o'z bilimlarini doimiy ravishda oshirishi, yangi metodlarni o'zlashtirishi va kasbiy etika talablariga rioya qilishi zarur. Bu esa o'quvchilarga ta'sirchanlikni oshiradi va ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlaydi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi: O'qituvchining ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarining uyg'unligi muhim ahamiyatga ega. U milliy an'analar va urf-odatlarini hurmat qilishi bilan birga, umuminsoniy qadriyatlarni ham o'zida mujassam etishi kerak. Bu uyg'unlik o'quvchilarda keng dunyoqarashni shakllantiradi va ularni global jamiyatning faol a'zolari bo'lishga tayyorlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bo'lajak tarix o'qituvchilarining ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish jarayonida bir qator muammolar mavjud. Ushbu muammolar o'qituvchining kasbiy rivojlanishiga, pedagogik faoliyatiga va ta'lim sifati hamda tarbiya jarayonining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Kasbiy etikaning yetarlicha shakllanmaganligi

Tadqiqot davomida aniqlangan muhim muammolardan biri – bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy etika tamoyillariga to'liq amal qilmasligi. Kasbiy etika o'qituvchining o'z faoliyatida adolat, halollik, o'quvchilar bilan hurmatli va samimiy munosabatda bo'lishini talab qiladi [7]. Biroq, o'qituvchilarning kasbiy etika tamoyillarini o'zlashtirish darajasi pastligicha qolmoqda. Buning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- Kasbiy etika bo'yicha maxsus amaliy seminar va treninglarning yetishmasligi;

- Pedagogika fakultetlarida axloqiy yetakchilik bo'yicha darslarning amaliy qismiga yetarli e'tibor berilmasligi;
- O'qituvchilik faoliyatining axloqiy jihatlari bo'yicha talabgorlarning yetarli tayyorgarlik ko'rmasligi.

Bunday holatlar natijasida bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy etika me'yorlariga rioya qilish darajasi past bo'lib, ularning ma'naviy-axloqiy qiyofasi to'liq shakllanmay qolmoqda.

O'qituvchilarning axloqiy yetakchilik kompetensiyalarining yetarli darajada rivojlanmagani

Axloqiy yetakchilik o'qituvchining asosiy fazilatlaridan biri bo'lib, u nafaqat o'quvchilarga bilim berish, balki ularning axloqiy qadriyatlarini shakllantirish jarayonida ham muhim rol o'ynaydi [10]. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, aksariyat pedagoglar axloqiy yetakchilik kompetensiyalarini rivojlantirishga yetarlicha e'tibor bermaydilar.

Asosiy kamchiliklar:

- O'qituvchilarning o'z shaxsiy rivojlanishiga va axloqiy yetakchilik qobiliyatlarini oshirishga yetarlicha e'tibor qaratmasligi;
- Axloqiy yetakchilikning ta'lim jarayonidagi ahamiyatiga pedagoglar tomonidan chuqur tushuncha hosil qilinmaganligi;
- O'qituvchi tayyorlash tizimida axloqiy yetakchilikni rivojlantirishga oid dasturlar mavjud bo'lsa-da, ular amaliyotda to'liq tatbiq etilmayotgani.

Shu sababli, o'qituvchilarning nafaqat metodik bilimlarini, balki axloqiy va shaxsiy yetakchilik fazilatlarini ham rivojlantirish zarurati ortib bormoqda.

O'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish jarayonida innovatsion metodlar yetishmovchiligi

Bugungi kun ta'lim tizimi an'anaviy usullardan interaktiv va innovatsion metodlarga o'tishni talab qiladi [3]. Biroq tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ko'plab tarix o'qituvchilari o'z darslarida hali ham eskirgan yondashuvlardan foydalanishadi va tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish jarayonida innovatsion metodlarga yetarlicha e'tibor berilmayapti.

Bu muammoning asosiy sabablari:

- Ta'lim jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish bo'yicha o'qituvchilarning malaka oshirish kurslariga yetarlicha jalb etilmasligi;
- O'quv jarayonida zamonaviy texnologiyalar va metodlarning pedagoglar tomonidan kam qo'llanilishi;
- O'quvchilarning ijtimoiy va axloqiy tarbiyasiga oid innovatsion loyihalar sonining cheklanganligi.

Ushbu kamchiliklar ta'lim jarayonining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, o'quvchilarning tarbiyaviy rivojlanish jarayonini sustlashtiradi.

Muhokama. Ushbu tadqiqot natijalari o'qituvchining ma'naviy-axloqiy qiyofasi muhim pedagogik jihatlardan biri ekanligini tasdiqladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak tarix o'qituvchilarining axloqiy yetakchilik, shaxsiy namuna bo'lish, tarixiy tafakkur va vatanparvarlik kabi fazilatlarini ta'lim jarayonida samarali natijalarga erishish uchun hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari boshqa ilmiy ishlanmalar bilan taqqoslash. Tadqiqot natijalari ilgari o'tkazilgan ilmiy ishlanmalar bilan taqqoslanganda, ularning ko'p jihatdan mos kelishini kuzatish mumkin. Masalan, xorijiy olimlardan J.Dyui ta'lim tizimida o'qituvchining axloqiy qiyofasi yosh avlodni shakllantirishda eng muhim omil ekanligini ta'kidlagan bo'lsa, L.Vygotsky shaxsiy namuna va ijtimoiy ta'sir pedagogik jarayonda asosiy omillardan biri ekanligini ilgari surgan. Shuningdek, H.Gardner esa o'qituvchilarning ma'naviy yetakchilik qobiliyatlari ularning o'quvchilar bilan o'zaro munosabatlariga qanday ta'sir ko'rsatishini ilmiy asosda o'rgangan.

Shu bilan birga, mahalliy tadqiqotlar ham ushbu mavzuning dolzarbligini tasdiqlaydi. G.Nurova tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda o'qituvchilarning kasbiy etikasini shakllantirish o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilishi aniqlangan. Bu tadqiqot bizning natijalarimizni qo'llab-quvvatlaydi va o'qituvchi tayyorlash jarayonida axloqiy yetakchilik kompetensiyalariga yanada ko'proq e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari tarix o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishiga oid maxsus dasturlar ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi. Bu dasturlar o'qituvchilarning axloqiy qiyofasini shakllantirish, pedagogik etika va shaxsiy namunani rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Amaliy jihatdan quyidagi yo'nalishlarda takomillashtirish ishlari olib borilishi mumkin:

1. Bo'lajak tarix o'qituvchilari uchun maxsus kasbiy rivojlanish dasturlari ishlab chiqish

- ✓ O'qituvchining axloqiy yetakchilik qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan kurslar tashkil etish.
- ✓ Tarixiy tafakkur va vatanparvarlikni targ'ib qilish bo'yicha maxsus pedagogik materiallar ishlab chiqish.
- ✓ O'qituvchilarni kasbiy etikaga oid xalqaro tajribalar bilan tanishtirish.

2. O'qituvchining shaxsiy axloqiy qiyofasini shakllantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar

- ✓ O'qituvchi tayyorlash tizimida axloqiy kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha maxsus modullar kiritish.
- ✓ O'qituvchilarning shaxsiy tarbiya va ichki intizomini mustahkamlashga qaratilgan motivatsion dasturlar ishlab chiqish.
- ✓ Ilmiy konferensiyalar, munozaralar va pedagogik treninglar orqali o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish.

3. Pedagogik mahorat va etika treninglari orqali o'qituvchilarning ta'sirchanligini oshirish

- ✓ O'qituvchilarga innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha maxsus treninglar tashkil etish.
- ✓ Shaxsiy namuna bo'lish va axloqiy yetakchilik tamoyillarini amaliyotda qo'llashga o'rgatish.
- ✓ O'qituvchilarga pedagogik psixologiya va kommunikatsiya ko'nikmalarini rivojlantirishga oid amaliy mashg'ulotlar tashkil qilish.

Ushbu tadbirlarni amalga oshirish orqali o'qituvchilarning ta'lim jarayonidagi ijtimoiy va tarbiyaviy roli mustahkamlanadi va ularning shaxsiy fazilatlarini orqali o'quvchilarga ta'sir qilish darajasi oshadi.

Muhokama natijalariga ko'ra, tadqiqotning asosiy xulosalari quyidagicha bo'lishi mumkin:

- ❖ Tarix o'qituvchisining ma'naviy-axloqiy qiyofasi o'quvchilarning tarbiyaviy va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi.
- ❖ O'qituvchilarning kasbiy etikasi va axloqiy yetakchilik kompetensiyalarini rivojlantirish zarur.
- ❖ Kasbiy rivojlanish dasturlari va pedagogik treninglar orqali o'qituvchilarning ta'sirchanligini oshirish maqsadga muvofiqdir.
- ❖ Kelajakda bu mavzuni boshqa fan o'qituvchilarining tajribasi bilan taqqoslab o'rganish lozim.

Shunday qilib, o'qituvchining ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qolishi lozim. Bu esa, o'z navbatida, yosh avlodning barkamol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot bo'lajak tarix o'qituvchisining ma'naviy-axloqiy qiyofasi ta'lim jarayonidagi o'rnini va ahamiyatini o'rganishga qaratildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'qituvchining shaxsiy namuna bo'lishi, axloqiy yetakchilik qobiliyati va tarixiy tafakkurni shakllantirish jarayonidagi roli uning ta'lim samaradorligini oshiradi. Biroq, tadqiqot jarayonida o'qituvchilarning kasbiy etika va axloqiy yetakchilik kompetensiyalarini rivojlantirish borasida muayyan muammolar mavjudligi aniqlandi.

Bu muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi tavsiyalar ilgari surildi:

- Tarix o'qituvchilari uchun maxsus kasbiy etika va pedagogik axloq kurslarini yo'lga qo'yish – bu ularning kasbiy rivojlanishiga hissa qo'shadi.
- Axloqiy yetakchilik va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish – o'qituvchilarning o'quvchilar bilan samarali muloqot qilish ko'nikmalarini oshiradi.
- Ta'lim jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish – o'quvchilarga madaniy meros va tarixiy tafakkurni chuqur singdirishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari ta'lim muassasalari, o'qituvchi tayyorlash markazlari va malaka oshirish kurslarida amaliy qo'llanilishi mumkin. Ushbu yo'nalishda olib boriladigan chora-tadbirlar nafaqat tarix o'qituvchilarining, balki butun ta'lim tizimining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. B.Aminov, & M.Meliqo'ziyeva (2023). O'qituvchida zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirish yo'llari. *Oriental Art and Culture*, 4(3), 542-547.
2. Comenius, J.A. (1967). *Didactica Magna*. London: University Press.
3. Dewey, J. (1916). *Democracy and Education*. New York: Macmillan.
4. Freire, P. (1996). *Pedagogy of the Oppressed*. London: Penguin Books.
5. Gardner, H. (2000). *The Disciplined Mind: What All Students Should Understand*. New York: Simon & Schuster.
6. Meliyev, X., Jamoldinova, O., & Risqulova, K. (2021). Tarbiyachining kasbiy kompetenti va mahorati. In *Zarvaraq nashriyoti*. Zarvaraq nashriyoti. https://tsuull.uz/sites/default/files/tarbiyachining_kasbiy_kompeten_compressed.pdf
7. Nurova, G. (2024). Kasbiy kompetentligini shakllantirish - pedagogik muammo sifatida. *Лучшие интеллектуальные исследования*. <http://web-journal.ru/>
8. Sa'dullaeva, M. H. & Chirchiq davlat pedagogika universiteti "O'zbekiston tarixi" kafedras. (2022). Ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish pedagogik muammo

- sifatida. *Образование И Инновационные Исследования*, 189. <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.10.10.021>
9. UNESCO. (2015). *Global Citizenship Education: Preparing Learners for the Challenges of the 21st Century*. Paris: UNESCO.
 10. Vygotsky, L.S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge: Harvard University Press.
 11. Xolmirzayev, A., Abdullayevich. (2024). Modern trends of teaching in the context of innovative and digital technologies in higher education: prospects, problems and solutions. In *International scientific and practical conference* (pp. 154–155). <https://doi.org/10.5281/zenodo.14244473>
 12. Shomurotova, N. K. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar ilmiy va ilmiy texnik onlayn konferens o'qituvchi axloqiy qiyofasi va uning talabalarga ta'siri. *Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar ilmiy va ilmiy texnik onlayn konferensiyasi* (b. 12). <http://conf.sciencebox.uz/>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).